



UDK:004:316.7:008 (575.1)

Ulug‘bek SHUKRULLAEV,
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi,
E-mail: nanni-juli@mail.ru

O‘zMU professori, s.f.d. (DSc) K.Mirzaaxmedov taqrizi asosida

JAMIYAT XAVFSIZLIGIDA AXBOROT MADANIYATINI OSHIRISH MASALALARI

Аннотация

Mazkur maqolada zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida axborot madaniyatining jamiyat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi axborot oqimlarining keskin ortishi va feyk axborotlar, dezinformatsiya hamda mafkuraviy tahdidlarning kuchayib borayotgani bilan izohlanadi. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy yondashuv va sotsiologik umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, axborot madaniyati darajasi jamiyat xavfsizligi va mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Muallif tomonidan axborot madaniyatini rivojlantirish orqali gibrid tahdidlarga qarshi samarali kurashish imkoniyatlari asoslab beriladi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: axborot madaniyati, jamiyat xavfsizligi, mafkuraviy barqarorlik, axborot tahdidlari, feyk axborot, dezinformatsiya, gibrid tahdidlar, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, raqamli jamiyat.

ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ В СИСТЕМЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация

В статье анализируется роль информационной культуры в обеспечении безопасности общества в условиях современной цифровой среды. Актуальность исследования обусловлена ростом информационных потоков, распространением фейковой информации, дезинформации и усилением идеологических угроз. В исследовании использованы методы системного анализа, сравнительного подхода и социологического обобщения. Результаты показывают, что уровень информационной культуры является важным фактором обеспечения общественной безопасности и идеологической устойчивости. Автор обосновывает возможности противодействия гибридным угрозам через развитие информационной культуры и предлагает практические рекомендации.

Ключевые слова: информационная культура, безопасность общества, идеологическая устойчивость, информационные угрозы, фейковые новости, дезинформация, гибридные угрозы, медиаграмотность, критическое мышление, цифровое общество.

CHALLENGES OF IMPROVING INFORMATION CULTURE WITHIN THE PUBLIC SAFETY FRAMEWORK

Annotation

This article examines the role of information culture in ensuring social security in the context of a modern digital society. The relevance of the study is determined by the rapid growth of information flows, the spread of fake news, disinformation, and increasing ideological threats. The research applies methods such as system analysis, comparative approach, and sociological generalization. The findings indicate that the level of information culture is a key factor in ensuring social security and ideological stability. The author substantiates the importance of developing information culture as a tool to counter hybrid threats and provides practical recommendations.

Keywords: information culture, social security, ideological stability, information threats, fake news, disinformation, hybrid threats, media literacy, critical thinking, digital society.

Kirish. XXI asrda jamiyat taraqqiyoti axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiyalar tizimining jadal rivojlanishi bilan belgilanib, axborot inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Axborot nafaqat bilim manbai, balki ijtimoiy boshqaruv, siyosiy jarayonlar va jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan, jamiyat xavfsizligini ta'minlash masalasi tobora ko'proq axborot makonida kechayotgan jarayonlar bilan uzviy bog'lanmoqda.

Zamonaviy axborot makonining kengayishi, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning ommalashuvi natijasida axborot oqimlari keskin ortdi. Bu esa bir tomondan, axborotga erkin kirish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, turli xil noto'g'ri, manipulyativ va maqsadli yo'naltirilgan axborotlarning tezkor tarqalishiga zamin yaratmoqda. Natijada, jamiyatda noto'g'ri qarashlar, asossiz xulosalar va ijtimoiy beqarorlikka olib keluvchi omillar shakllanish xavfi yuzaga kelmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan keskin o'zgarishlar, turli tahdid va xavf-xatarlar sharoitida jamiyat barqarorligini ta'minlash, ayniqsa, yosh avlodni turli zararli g'oyalar va axborot ta'siridan himoya qilish

masalasi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1]. Bu esa jamiyat a'zolarida axborotga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, ya'ni axborot madaniyatini rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborot makonida tarqalayotgan feyk axborotlar va manipulyativ xabarlar, ayniqsa, yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ularning qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta'sir etmoqda [2]. Bu holat esa axborot madaniyatini oshirish, media savodxonlikni rivojlantirish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zaruratini yanada dolzarb etadi.

Shu nuqtai nazardan, jamiyat xavfsizligini mustahkamlashda axborot madaniyatini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish, shuningdek, zamonaviy axborot makonida yuzaga kelayotgan tahdidlarga qarshi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Axborot madaniyati va jamiyat xavfsizligi masalalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilayotgan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli jamiyat sharoitida axborot oqimlarining keskin ortishi, ularning inson ongiga ta'sir darajasining kuchayishi ushbu muammoning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Xususan, axborot jamiyati nazariyasi asoschilaridan biri bo'lgan M. Kastells axborotni zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy strategik resursi sifatida baholab, axborot oqimlarini boshqarish imkoniyati ijtimoiy hokimiyatning muhim omiliga aylanib borayotganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, raqamli muhitda axborot nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va madaniy jarayonlarga ham bevosita ta'sir ko'rsatuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi [3]. Shuningdek, media nazariyasi va axborot ta'siri muammolarini tadqiq etgan M.Maklyuen ommaviy axborot vositalarini inson ongini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida baholaydi. U ilgari surgan "vosita – bu xabarning o'zi" degan konsepsiya axborotni yetkazish shakli uning mazmunidan kam ahamiyatga ega emasligini asoslab beradi. Bu yondashuv kommunikatsiya vositalarining jamiyat ongiga ta'sirini tushinishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [4].

Zamonaviy tadqiqotchilardan K.Sansteyn esa axborot makonidagi manipulyatsiya va dezinformatsiya muammolarini chuqur tahlil qilib, internet orqali tarqalayotgan axborot insonlarning qarashlari, qadriyatlar va qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, insonlar ko'pincha o'z qarashlariga mos keluvchi axborotni qabul qilishga moyil bo'lib, bu esa "axborot pufagi" (information bubble) fenomenini yuzaga keltiradi [5].

Mahalliy tadqiqotchilar ishlarida esa axborot madaniyati ko'proq jamiyat xavfsizligi, ma'naviy barqarorlik va mafkuraviy himoya bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Xususan, A.X.Abdurayimov axborot madaniyatini shaxsning axborotni tanlash, tahlil qilish va unga tanqidiy munosabat bildirish qobiliyati sifatida talqin qilib, feyk axborotlar yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatayotganini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining sustligi axborot tahdidlarining kuchayishiga olib keladi [6].

Shu bilan birga, X.M.Burxonov raqamli jamiyat sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalarini tahlil qilib, axborot oqimlarining ortishi va axborot bosimining kuchayishi shaxs va jamiyat uchun yangi xavf-xatarlarni yuzaga keltirayotganini qayd etadi. U axborot xavfsizligini faqat texnik masala emas, balki ijtimoiy va mafkuraviy muammo sifatida ham ko'rib chiqadi [7].

I.A. Suvanov esa globallashuv sharoitida axborot-mafkuraviy ta'sir muammolarini o'rganib, turli mafkuraviy kuchlar axborot vositalari orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu jarayon jamiyat ongiga ta'sir ko'rsatishning yangi mexanizmlarini shakllantirib, mafkuraviy raqobatni kuchaytirmoqda [8].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot madaniyati jamiyat xavfsizligini ta'minlashda muhim omil bo'lib, uni rivojlantirish orqali axborot tahdidlariga qarshi samarali kurashish mumkin. Shu nuqta nazaridan, axborot madaniyatini oshirish masalasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda jamiyat xavfsizligini ta'minlashda axborot madaniyatining o'rni va ahamiyatini o'rganishda kompleks va tizimli yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy-falsafiy tahlil usullari bilan bir qatorda zamonaviy ilmiy metodlardan keng foydalanildi.

Xususan, tizimli yondashuv asosida axborot madaniyati jamiyat xavfsizligining muhim tarkibiy elementi sifatida ko'rib chiqildi va uning boshqa ijtimoiy institutlar bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Ushbu yondashuv axborot madaniyatining jamiyat barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarini kompleks ravishda ochib berishga imkon yaratdi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli yordamida xorijiy va mahalliy ilmiy qarashlar o'zaro solishtirildi hamda ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Bu esa axborot madaniyati tushunchasining nazariy asoslarini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qildi.

Shuningdek, kontent-tahlil usuli orqali raqamli axborot makonida tarqalayotgan turli axborotlarning mazmuni, xususan, feyk axborotlar, manipulyativ xabarlar va dezinformatsiya elementlari o'rganildi. Ushbu usul orqali axborot oqimlarining

jamiyat ongiga ta'sir mexanizmlari aniqlanib, ularning xavfsizlik nuqtai nazaridan ahamiyati baholandi.

Induktiv va deduktiv tahlil usullari yordamida umumiy nazariy xulosalardan kelib chiqib aniq ilmiy natijalarga erishildi va alohida kuzatuvlar asosida umumlashmalar shakllantirildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

Bundan tashqari, ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida axborot madaniyati nafaqat texnologik yoki kommunikativ hodisa, balki shaxsning ma'naviy, axloqiy va intellektual rivoji bilan bog'liq kompleks jarayon sifatida talqin qilindi. Mazkur yondashuv jamiyat xavfsizligini ta'minlashda inson omilining ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib berdi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida axborot oqimlarining keskin ortishi jamiyat xavfsizligini ta'minlash masalasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Axborot bugungi kunda nafaqat kommunikativ vosita, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, mafkuraviy yo'nalishlarni belgilovchi va siyosiy jarayonlarga ta'sir etuvchi strategik resurs sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqta nazaridan, axborot madaniyatining darajasi jamiyat xavfsizligining asosiy indikatorlaridan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda axborotning bunday transformatsiyasi "axborot hokimiyati" tushunchasi orqali izohlanib, uning ijtimoiy boshqaruvdagi roli tobora ortib borayotgani ta'kidlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli muhitda axborot almashinuv jarayonlari jadallashgani sari axborot bosimi ham ortib bormoqda. Internet tarmog'ida tarqalayotgan turli axborotlar hajmining keskin oshishi insonning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan birga, uni zararli va manipulyativ kontent ta'siriga ham duchor etmoqda. Ayniqsa, global tarmoqlarda axborot ekspansiyasi kuchayib borayotgani va turli mafkuraviy oqimlar o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgani jamiyat xavfsizligi uchun jiddiy tahdidlarni yuzaga keltirmoqda [7]. Tadqiqotchilar fikricha, raqamli platformalarda axborotning tez tarqalishi uning ishonchligini emas, balki emotsional jozibadorligini ustuvor qilmoqda, bu esa manipulyatsiya imkoniyatlarini kengaytiradi [10].

Shu bilan birga, zamonaviy axborot makonida feyk axborotlar va dezinformatsiya alohida xavf omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday axborotlar ko'pincha hissiy ta'sirga ega bo'lib, tez tarqaladi va ayniqsa yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Axborotni tekshirmasdan qabul qilish esa ijtimoiy ongda noto'g'ri tasavvurlar shakllanishiga olib keladi hamda jamiyatda ishonchsizlik muhitining kuchayishiga sabab bo'ladi [6]. Xorijiy tadqiqotlarda bu jarayon "post-haqiqat davri" fenomeni bilan izohlanib, unda faktlardan ko'ra hissiyot va subyektiv qarashlar ustunlik qilishi qayd etiladi [11].

Natijalar shuni ko'rsatadiki, axborot madaniyatining past darajasi jamiyatda "axborot zaifligi" fenomenini yuzaga keltiradi. Bunday sharoitda shaxslar turli mafkuraviy ta'sirlarga tez berilib ketadi, manipulyativ axborotlarga ishonadi va tanqidiy fikrlash qobiliyati yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Aksincha, axborot madaniyati rivojlangan ijtimoiy muhitda shaxs axborotni tanlash, tekshirish va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, bu esa uni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qiluvchi "mafkuraviy immunitet"ni shakllantiradi. Bu holat zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarda "kognitiv himoya mexanizmlari" sifatida talqin qilinadi [12].

Ayniqsa, bugungi kunda "gibrid tahdidlar" fenomeni dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday tahdidlar axborot, psixologik va mafkuraviy ta'sir vositalarining uyg'unlashuvi orqali amalga oshiriladi. Ular jamiyat ongiga bevosita emas, balki bilvosita ta'sir ko'rsatib, qadriyatlar tizimini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Bu esa jamiyatda mafkuraviy beqarorlik, ijtimoiy tarqoqlik va axborotga nisbatan ishonchsizlik muhitini yuzaga keltirishi mumkin. Ayrim tadqiqotchilar buni "axborot orqali boshqariladigan ijtimoiy transformatsiya" jarayoni sifatida baholaydilar.

Jamiyat xavfsizligini ta'minlash fenomeni nuqtai nazaridan qaralganda, axborot madaniyati individual darajadagi ko'nikma emas, balki ijtimoiy tizimning muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim tizimi, ommaviy axborot

vositalari va ijtimoiy institutlar axborot madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, yoshlar orasida media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish raqamli mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda media savodxonlik demokratik jamiyatning muhim elementi sifatida ham baholanadi.

Bundan tashqari, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, axborot madaniyatini rivojlantirish jamiyatda ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash bilan uzviy bog'liqdir. Chunki shaxsning ma'naviy darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, u axborotga nisbatan shunchalik ongli va tanqidiy yondashadi. Bu esa jamiyatda sog'lom axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, axborot madaniyati nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-axloqiy kategoriya sifatida ham namoyon bo'ladi.

Natijalar asosida quyidagi ilmiy xulosalarni ilgari surish mumkin:

axborot madaniyati jamiyat xavfsizligining strategik omili hisoblanadi;

raqamli muhitda axborot tahdidlari murakkablashib, ularning ta'sir doirasi kengaymoqda;

feyk axborotlar va dezinformatsiya jamiyat ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

tanqidiy fikrlash va media savodxonlik mafkuraviy barqarorlikning asosiy sharti hisoblanadi;

gibrid tahdidlarga qarshi kurashishda axborot madaniyatini rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, jamiyat xavfsizligini ta'minlashda axborot madaniyatini oshirish strategik zarurat bo'lib, u davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida axborot madaniyatining darajasi jamiyat xavfsizligini ta'minlashning muhim va ajralmas omillaridan biri hisoblanadi. Axborot oqimlarining keskin ortishi, global axborot makonining kengayishi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida jamiyat ongiga ta'sir ko'rsatishning yangi shakllari vujudga kelmoqda. Bu esa axborot xavfsizligi masalasini nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-mafkuraviy muammo sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, axborot madaniyatining past darajasi jamiyatda turli mafkuraviy tahdidlarga nisbatan zaiflikni kuchaytiradi, feyk axborotlar va dezinformatsiyaning keng tarqalishiga zamin yaratadi hamda ijtimoiy ongda noto'g'ri qarashlarning shakllanishiga olib keladi. Aksincha, axborot madaniyati rivojlangan muhitda shaxsning tanqidiy fikrlash qobiliyati shakllanib, u turli manipulyativ ta'sirlarga nisbatan barqaror immunitet hosil qiladi. Bu holat jamiyatda mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari raqamli makonda yuzaga kelayotgan gibrid tahdidlar, axborot manipulyatsiyasi va yashirin mafkuraviy ta'sir mexanizmlarining murakkablashib borayotganini ko'rsatdi. Bu esa jamiyat xavfsizligini ta'minlashda kompleks yondashuvni, ya'ni davlat siyosati, ta'lim tizimi va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligini talab etadi. Ayniqsa, yoshlar orasida media savodxonlikni rivojlantirish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

ta'lim tizimiga axborot madaniyati va media savodxonlikka oid maxsus kurslarni keng joriy etish;

yoshlar orasida tanqidiy fikrlash va analitik yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni kuchaytirish; ommaviy axborot vositalari va internet platformalarida feyk axborotlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish;

jamiyatda sog'lom axborot muhitini shakllantirish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli ravishda olib borish;

davlat va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirgan holda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks strategiyalar ishlab chiqish;

raqamli makonda yuzaga kelayotgan gibrid tahdidlarga qarshi milliy darajada samarali monitoring va tahlil tizimlarini yo'lga qo'yish.

Umuman olganda, axborot madaniyatini rivojlantirish jamiyat xavfsizligini ta'minlashning strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat bugungi kun, balki kelajak taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada kengaytirish va amaliy choralarni tizimli ravishda amalga oshirish zarur hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent. O'zbekiston, 2019.
2. Abduqayumov A.X. Axborot madaniyati va feyk yangiliklar: yoshlar orasida tanqidiy fikrlashni shakllantirish muammolari. – 2025.
3. Castells, Manuel. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010.
4. McLuhan, Marshall. Understanding Media: The Extensions of Man. – New York: McGraw-Hill, 1964.
5. Sunstein, Cass R. Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media. – Princeton: Princeton University Press, 2017.
6. Abduqayumov A.X. Axborot madaniyati va feyk yangiliklar: yoshlar orasida tanqidiy fikrlashni shakllantirish muammolari. – Guliston davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2025.
7. Burxonov X.M. Axborot xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy nazariy-metodologik asoslari. – International Journal of Intellectual and Cultural Heritage, Toshkent, 2025.
8. Suvanov I.A. Globallashuv sharoitida axborot-mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari. – Toshkent: Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, 2023.
9. Почепцов Г.Г. Информационные войны и информационная политика. – Москва: Рефл-бук, 2001.
10. McIntyre L. Post-Truth. – Cambridge, MA: MIT Press, 2018.
11. Soldatov A., Borogan I. The Red Web: The Struggle Between Russia's Digital Dictators and the New Online Revolutionaries. – New York: PublicAffairs, 2015.